XALQ DEPUTATLARI JIZZAX SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-4-019-3-55-K/24 Jizzax shahar

Jizzax shahrining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, budjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1011-son Qonuniga va xalq deputatlari Jizzax viloyat Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-4-032-3-0-K/24-son qaroriga muvofiq hamda Jizzax viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 26-dekabrdagi 01-20-08-02-39/185-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Jizzax shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Jizzax viloyat Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-4-032-3-0-K/24-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Jizzax shahar mahalliy budjetining 2025-yilgi daromadlari **139 404 169 ming.so‘m** va xarajatlari esa **139 404 169 ming.so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda Jizzax shahar mahalliy budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **1 222 000 ming.so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Shahar mahalliy budjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda 2025-yilda umumdavlat soliqlaridan shahar mahalliy budjetiga ajratmalar me’yori 2-ilovaga muvofiq, Shahar mahalliy budjetidan 2025-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq, Shahar mahalliy budjetining 2025-yil daromadlari va xarajatlarning chegaraviy hajmi 4-ilovaga muvofiq, shuningdek shahar budjeti yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Jizzax shahar mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2025-yil uchun 1 741 804 ming.so‘m miqdorida belgilansin. Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 6-ilovaga, jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 m2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari-Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig`i S.Haydarov, shahar soliq inspeksiyasi (X.Umurov) bilan birgalikda 2025-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta′minlash choralarini ko‘rsin.

7. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta′minlasin.

8. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Ushbu qaror 2025-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kiradi.

10. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Jizzax shahar Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Sh.Azimov) hamda shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari-iqtisodiyot va moliya bo‘limi S.Haydarov zimmasiga yuklatilsin**.**

Kengash raisi XOLMURODOV KOMIL ADXAMOVICH

Xalq deputatlari Jizzax shahar
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-019-3-55-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Jizzax shahar mahalliy budjetining daromadlarining 2025-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Kontingent reja	Mahalliy reja
JAMI		**760 409 069**	**139 404 169**
1	Foyda solig‘i	65 538 000	0
2	Aylanmadan olinadigan soliq	40 535 047	40 535 047
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	419 995 000	0
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	11 600 000	11 600 000
5	Aksiz solig‘i jami	18 718 000	0
	alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)		*0*
	pivo		*0*
	benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	*18 718 000*	*0*
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	29 197 000	8 759 100
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	25 538 152	25 538 152
8	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	29 397 000	29 397 000
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	20 039 870	20 039 870
10	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	330 000	330 000
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	1 933 000	1 933 000
12	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	9 000	9 000
13	Davlat boji	48 164 000	0
14	Yig‘imlar	24 924 000	0
15	Jarimalar	23 228 000	0
16	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	1 263 000	1 263 000

Xalq deputatlari Jizzax shahar
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-019-3-55-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2025-yilda umumdavlat soliqlaridan shahar mahalliy budjetiga ajratmalar me’yori

№	Soliq turlari	Hududlar nomi	Soliq to‘lovchilar	Ajratma me’yori
1	**Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i****	Shahar budjetiga	YST	0%
			HST	0%
		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	100%
2	**Foyda solig‘i*****	Shahar budjetiga	YST	0%
			HST	0%
		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	100%
3	**Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)**	Shahar budjetiga	YST	0%
			HST	0%
		Viloyat budjetiga	YST	0%
			HST	0%
4	**Pivo**	Shahar budjetiga	YST	0%
			HST	0%
		Viloyat budjetiga	YST	0%
			HST	0%
5	**Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i**	Shahar budjetiga	YST	0%
			HST	0%
		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	100%
6	**Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq**	Shahar budjetiga	YST	0%
			HST	30%
		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	70%
7	**Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i**	Shahar budjetiga	YST	0%
			HST	100%
		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	0%
8	**Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq**	Shahar budjetiga	YST	100%
			HST	100%
		Viloyat budjetiga	YST	0%
			HST	0%
9	**Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq**	Shahar budjetiga	YST	100%
			HST	100%
		Viloyat budjetiga	YST	0%
			HST	0%
10	**Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar**	Shahar budjetiga	YST	0%
			HST	100%

		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	0%

№	Soliq turlari	Hududlar nomi	Soliq to‘lovchilar	Ajratma me’yori
11	**Aylanmadan soliq**	Shahar budjetiga		100%
		Viloyat budjetiga		0%
12	**Davlat boji**	Shahar budjetiga		0%
		Viloyat budjetiga		100%
13	**Jarima**	Shahar budjetiga		0%
		Viloyat budjetiga		100%
14	**Yig‘imlar**	Shahar budjetiga		0%
		Viloyat budjetiga		100%
15	**Davlat aktivlarini sotishdan tushum (Xususiylashtirish)**	Shahar budjetiga		50%
		Viloyat budjetiga		50%
16	**Mulk va yer huquqini auksion orqali sotishdan tushum**	Shahar budjetiga		50%
		Viloyat budjetiga		50%

Izoh: HST - Hududiy soliq to‘lovchilar.

YST – Yirik soliq to‘lovchilar.

* *Mazkur soliq turlaridan tashqari boshqa daromadlar (3450950, 3450960 va boshqalar) Iqtisodiyot va moliya vazirligi belgilab bergan tartibda shahar (Shaharlar) va viloyat budjetlariga ajratma qilinadi.*

** *Jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari.*

*** *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyatgi amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari*

Xalq deputatlari Jizzax shahar
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-019-3-55-K/24 -son qaroriga
3-ilova

2025-yil uchun Jizzax shahri budjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Jizzax shahar
Xarajatlar miqdori, jami		**139 404 169,0**
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	35 330 730,0
	shundan:	
	"Mening maktabim"	1 865 797,0
2	Tibbiyot birlashmasi	0,0
	shundan:	
	Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi markazi	*0,0*
3	Madaniyat bo‘limi	6 869 069,0
4	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	4 250 582,0
5	Sport bo‘limi	5 364 860,0
6	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	1 817 118,0
7	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	1 914 323,0
8	Irrigatsiya bo‘limi	0,0
9	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	2 848 443,0
10	Davlat soliq inspekciyasi	0,0
11	Hokimyat	35 315 757,0
	shundan:	
	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	*110 304,0*
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	*23 100,0*
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*22 469 562,0*
	"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*2 402 152,0*
	Zahira jamg‘armasi	*1 741 804,0*
12	Hokimyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	55 228,0
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*55 228,0*
	Axborot-kutubxona markazlari	*0,0*
13	Hokimyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)	45 638 059,0
14	Boshqa tashkilotlar	0,0

Xalq deputatlari Jizzax shahar
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-019-3-55-K/24 -son qaroriga
4-ilova

Jizzax shahar mahalliy budjetining 2025-yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

(ming so‘mda)

Hudud nomi	Jami daromadlar	shundan		Mahalliy budjet xarajatlari
		Mahalliy budjet daromadlar	Tartibga soluvchi transfert miqdori	
Jizzax shahar	**139 404 169,0**	**139 404 169,0**	**0,0**	**139 404 169,0**

Xalq deputatlari Jizzax shahar
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-019-3-55-K/24 -son qaroriga
5-ilova

Jizzax shahar mahalliy budjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/r	**Hudud nomi**	**Miqdor**
1	Jizzax shahar	**1 222 000,0**

Xalq deputatlari Jizzax shahar
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-019-3-55-K/24 -son qaroriga
6-ilova

2025-yil uchun shaharda qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar o‘yicha mutloq miqdorda 1 kv.m. yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

T/r	Mahalla nomi	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari. 1 ga uchun	
		Koeffitsient (0.7 dan 3 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025-yil uchun (so‘mda)
1	Alisher Navoiy MFY	1.12	79 833 600.0
2	Amir Temur MFY	0.90	64 152 000.0
3	Bog‘ishamol MFY	1.00	71 280 000.0
4	Bunyodkor MFY	1.00	71 280 000.0
5	Do‘stlik MFY	1.00	71 280 000.0
6	Yoshlik MFY	1.11	79 120 800.0
7	Jizzaxlik MFY	1.07	76 269 600.0
8	Zargarlik MFY	1.22	86 961 600.0
9	Z.M.Bobur MFY	1.13	80 546 400.0
10	Zilol MFY	1.13	80 546 400.0
11	Ittifoq MFY	1.17	83 397 600.0
12	Qaliya MFY	1.03	73 418 400.0
13	Qassoblik MFY	1.00	71 280 000.0
14	Kimyogar MFY	1.17	83 397 600.0
15	Madaniyat MFY	1.17	83 397 600.0
16	Mirzo Ulug‘bek MFY	1.17	83 397 600.0
17	Navro‘z MFY	1.05	74 844 000.0
18	Nurliobod MFY	1.00	71 280 000.0
19	Obod MFY	1.18	84 110 400.0
20	Oqqurg‘onlik MFY	1.18	84 110 400.0
21	Olmazor MFY	1.13	80 546 400.0
22	Ravalliq MFY	1.07	76 269 600.0
23	Sayiljoyi MFY	1.22	86 961 600.0
24	Sayxon MFY	0.90	64 152 000.0
25	Sangzor MFY	1.05	74 844 000.0
26	Tinchlik MFY	1.00	71 280 000.0
27	Toshloq MFY	1.17	83 397 600.0
28	Turon MFY	1.00	71 280 000.0
29	O‘ratepalik MFY	1.17	83 397 600.0
30	Uch ariq MFY	1.03	73 418 400.0
31	Xayrabod MFY	0.95	67 716 000.0
32	Xalqobod MFY	1.17	83 397 600.0
33	Xamid Olimjon MFY	1.07	76 269 600.0
34	Shodlik MFY	0.90	64 152 000.0

Xalq deputatlari Jizzax shahar
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-019-3-55-K/24 -son qaroriga
7-ilova

2025-yil uchun shaharda jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

T/r	Mahalla nomi	Jismoniy shaxslar bo‘yicha. 1 kv.m uchun (turar joylar uchun belgilangan o‘sish meyoridan oshmagan holda)	
		Koeffitsient (0.7 dan 3 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025-yil uchun (so‘mda)
1	Alisher Navoiy MFY	1.25	836.00
2	Amir Temur MFY	0.88	588.54
3	Bog‘ishamol MFY	1.10	735.68
4	Bunyodkor MFY	1.10	735.68
5	Do‘stlik MFY	1.10	735.68
6	Yoshlik MFY	1.30	869.44
7	Jizzaxlik MFY	1.10	735.68
8	Zargarlik MFY	1.40	936.32
9	Z.M.Bobur MFY	1.30	869.44
10	Zilol MFY	1.35	902.88
11	Ittifoq MFY	1.30	869.44
12	Qaliya MFY	1.22	815.94
13	Qassoblik MFY	1.10	735.68
14	Kimyogar MFY	1.40	936.32
15	Madaniyat MFY	1.40	936.32
16	Mirzo Ulug‘bek MFY	1.40	936.32
17	Navro‘z MFY	1.22	815.94
18	Nurliobod MFY	1.17	782.50
19	Obod MFY	1.35	902.88
20	Oqqurg‘onlik MFY	1.35	902.88
21	Olmazor MFY	1.35	902.88
22	Ravalliq MFY	1.22	815.94
23	Sayiljoyi MFY	1.40	936.32
24	Sayxon MFY	0.85	568.48
25	Sangzor MFY	1.14	762.43
26	Tinchlik MFY	1.20	802.56
27	Toshloq MFY	1.40	936.32
28	Turon MFY	1.10	735.68
29	O‘ratepalik MFY	1.40	936.32
30	Uch ariq MFY	1.20	802.56
31	Xayrabod MFY	0.85	568.48
32	Xalqobod MFY	1.40	936.32
33	Xamid Olimjon MFY	1.22	815.94
34	Shodlik MFY	0.90	601.92